# O‘ZBEKISTON TASVIRIY SAN’ATIDA LIBOSNING TARIXIY XOTIRANI IFODALASH VOSITASI SIFATIDAGI BADIIY TALQINI

# ARTISTIC INTERPRETATION OF CLOTHING AS A MEANS OF EXPRESSING HISTORICAL MEMORY IN THE FINE ARTS OF UZBEKISTAN

# ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОСТЮМА КАК СРЕДСТВА ВЫРАЖЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА

***Sotvoldiyeva Nozima Xaydarjon qizi***

*Namangan davlat texnika universiteti magistranti*

*Master’s student, Namangan State Technical University*

*Магистрант, Наманганского государственного технического университета*

*Tel: (99894)116-55-44*

***Lobar Sherbayevna Shukurova***[1,2,3]*, PhD, dotsent*

[1] *Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti, San’atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti, San’at nazariyasi va tarixi kafedrasi, Toshkent, O‘zbekiston*

[2] *Guliston davlat universiteti, San’atshunoslik fakulteti, Amaliy san’at va dizayn kafedrasi, Guliston, O‘zbekiston*

[3] *Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Kasbiy ta’lim va san’at fakulteti, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasi, Toshkent, O‘zbekiston*

***Lobar Sherbayevna Shukurova***[1,2,3]*, PhD, Associate Professor*

[1] *National Institute of Fine Arts and Design named after Kamoliddin Behzod, Faculty of Art History and Museum Studies, Department of Art Theory and History,*

*Tashkent, Uzbekistan*

*[2] Gulistan State University, Faculty of Art History, Department of Applied Art and Design, Gulistan, Uzbekistan*

*[3] Uzbekistan National Pedagogical University named after Nizami, Faculty of Vocational Education and Art, Department of Fine Arts and Engineering Graphics, Tashkent, Uzbekistan*

Лобар Шербаевна Шукурова[1,2,3], PhD, доцент[1] Национальный институт художеств и дизайна имени Камолиддина Бехзода, Факультет искусствоведения и музееведения, Кафедра теории и истории искусства, Ташкент, Узбекистан[2] Гулистанский государственный университет, Факультет искусствоведения, Кафедра прикладного искусства и дизайна, Гулистан, Узбекистан[3] Узбекский национальный педагогический университет имени Низами, Факультет профессионального образования и искусства, Кафедра изобразительного искусства и инженерной графики, Ташкент, Узбекистан

***ANNOTATSIYA**: Ushbu maqolada O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy liboslarning qadimgi o‘tmish xotirasini va xalqimiz madaniyatini ko‘rsatib beruvchi eng asosiy vosita ekanligi o‘rganiladi. Tadqiqot davomida mashhur rassomlar Chingiz Ahmarov va Alisher Aliqulovning asarlari misolida kiyimlarning rasm ichidagi vazifasi tahlil qilinadi. Rasmlardagi kiyimlarning shakli, ranglari va matolardagi naqshlari shunchaki chiroyli bezak emas, balki qadimgi tariximiz hamda urf-odatlarimizni saqlab kelayotgan yashirin xazina ekanligi ko‘rsatib beriladi. Muallif rassomlar tarixiy asar yaratayotganda kiyimlardan qanchalik to‘g‘ri foydalangani va ular yordamida qahramonlar xarakterini hamda o‘sha davr muhitini qanday ochib berganini tushunarli tilda tahlil qiladi.*

***KALIT SO‘ZLAR**: O‘zbekiston tasviriy san’ati, milliy libos, tarixiy xotira, naqshlar ma’nosi, Chingiz Ahmarov, Alisher Aliqulov, vizual til, xalq madaniyati, tarixiy asar, o‘tmish ko‘zgusi.*

***ABSTRACT***: *This article examines national costumes in the fine arts of Uzbekistan as the primary tool reflecting the ancient historical memory and culture of the nation. Through the analysis of works by renowned artists Chingiz Akhmarov and Alisher Alikulov, the study explores the specific function of clothing within paintings. It demonstrates that the shape, colors, and textile patterns of the costumes are not merely beautiful decorations but a hidden treasury preserving ancient history and traditions. The author analyzes how effectively the artists utilized clothing to reveal the characters' personalities and the atmosphere of past eras in an accessible manner.*

***KEY WORDS***: *fine arts of Uzbekistan, national costume, historical memory, meaning of patterns, Chingiz Akhmarov, Alisher Alikulov, visual language, folk culture, historical artwork, mirror of the past.*

***АННОТАЦИЯ***: *В данной статье рассматривается национальный костюм в изобразительном искусстве Узбекистана как главный инструмент, отражающий древнюю историческую память и культуру народа. На примере произведений известных художников Чингиза Ахмарова и Алишера Аликулова анализируется конкретная роль одежды внутри картины. Показывается, что форма, цвета и узоры тканей на костюмах являются не просто красивым украшением, а скрытым сокровищем, сохраняющим древнюю историю и традиции. Автор в доступной форме анализирует, насколько правильно художники использовали элементы одежды для раскрытия характера персонажей и атмосферы той эпохи.*

***КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА***: *изобразительное искусство Узбекистана, национальный костюм, историческая память, значение узоров, Чингиз Ахмаров, Алишер Аликулов, визуальный язык, народная культура, историческое произведение, зеркало прошлого.*

KIRISH. Bugungi kunda jahon madaniyati integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonlari jadallashgan sharoitda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni asrab-avaylash hamda uni zamonaviy san’at vositalari orqali kelajak avlodga bezavol yetkazish eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Tasviriy san’at nafaqat insonning estetik didini shakllantiradi, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy barqarorligi, xalqning ma’naviy ildizlari va tarixiy xotirasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, tarixiy siymolarni tasvirlashda kiyim va ashyolar orqali o‘tmish xotirasini gavdalantirish muhim amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbekiston tasviriy san’ati uzoq va boy tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib, unda milliy kiyim-kechaklarning badiiy talqini doimo markaziy o‘rinlardan birini egallab kelgan. Libos – inson tanasini yopuvchi moddiy ashyo bo‘lish bilan birga, millatning etnogenezi, yashash tarzi, diniy-falsafiy qarashlari hamda estetik ideallarini vizual ko‘rinishda jamlagan o‘ziga xos madaniy koddir. Rassom tomonidan yaratilgan har qanday tarixiy yoki zamonaviy polotnoda libos elementlarining to‘g‘ri va haqqoniy tasvirlanishi asarning badiiy qiymatini oshiradi, uning tarixiy xotira uyg‘otuvchi funksiyasini faollashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab milliy madaniyatni, tarixiy janrni va qadimiy merosni qayta tiklash hamda rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat, tasviriy va amaliy san’at sohalarini yanada rivojlantirish, ijodkorlarni rag‘batlantirish hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid qator farmon va qarorlari ushbu sohadagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarga keng yo‘l ochdi. doir qo‘shimcha Prezidentning 01.07.2025 yildagi PQ-212-son qarori bilan tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirishga chora-tadbirlar belgilandi.

Tasviriy va amaliy san’atni rivojlantirish va jahon miqyosida ommalashtirish uchun O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bo‘ladi:

tasviriy va amaliy san’at hamda dizayn sohasi xodimlarini moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash hamda ularning samarali ijod qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

iste’dodli yosh rassomlar uchun mo‘ljallangan ijodiy ustaxonalar faoliyatini tashkil etish, ularning shaxsiy va jamoaviy ko‘rgazmalarini uyushtirish;

iste’dodli yoshlarni kreativ loyihalarga keng jalb etish;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasining 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida quyidagilar rejalashtirilmoqda:

Badiiy ko‘rgazmalar direksiyasining ko‘rgazma zalini rekonstruksiya qilish, Zamonaviy galereya binosini qurish va 40 ta ijodiy ustaxonadan iborat Yosh rassomlar markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

milliy usulda qog‘oz tayyorlash bo‘yicha o‘quv-ishlab chiqarish ustaxonasini yaratish;

Pavel Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabining qo‘shimcha o‘quv binosini qurish.

2026/2027-o‘quv yilidan boshlab Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida: tashqi o‘rindoshlik asosida faoliyat yuritayotgan ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega ijodkor pedagog kadrlar mazkur ta’lim tashkilotining ilmiy salohiyat ko‘rsatkichlarida inobatga olinadi (asosiy ish joyi boshqa OTMlarda bo‘lgan xodimlar bundan mustasno);

institut pedagoglari tomonidan yaratilgan yuksak badiiy asarlar monografiyaga tenglashtiriladi;

“rangtasvir”, "amaliy san’at" va “dizayn” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha “psixologiya” va “pedagogika” fanlaridan tahsil olgan bitiruvchilarga umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida "tasviriy san’at" fanidan dars berishga ruxsat etiladi.

Qaror bilan tasviriy va amaliy san’at sohasini yana-da rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. [1].

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**: O‘zbekiston tasviriy san’atida libosning tarixiy xotirani ifodalash vositasi sifatidagi badiiy talqinini tadqiq etishda ilmiy adabiyotlar tahlili muammoning tarixiy asoslari, ramziy ma’nolari va zamonaviy transformatsiyalarini tizimli o‘rganishga imkon beradi. G.A. Pugachenkovaning “Костюм Средней Азии по данным миниатюр XV–XVI вв.” asari o‘zbek tasviriy san’atida libosning tarixiy xotira quroliga aylanishining boshlang‘ich nuqtasini tahlil qilish imkonini beradi. Muallif miniatyura san’atini shunchaki estetik asar emas, balki muayyan davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettiruvchi vizual hujjat sifatida baholaydi va XV–XVI asrlar miniatyuralaridagi kiyimlar, bosh kiyimlar hamda matolar tahlili orqali bugungi kun ijodkorlari uchun o‘tmish xotirasini tiklashda birlamchi vizual andozani ko‘rsatib beradi. O‘z navbatida, D.A. Faxretdinovaning “Декоративно-прикладное искусство Узбекистана” asari libos tarkibidagi bezaklar, naqshlar va zargarlik buyumlarining semantik yukini tushunishga xizmat qiladi. Olima o‘zbek milliy bezak san’atining evolutsiyasini va ularning xalq mifologiyasi hamda dunyoqarashi bilan bog‘liqligini tizimlashtirgan bo‘lib, bu rangtasvirdagi libos naqshlari va ranglar simvolikasi milliy xotirani eltuvchi asosiy elementlar ekanligini nazariy jihatdan asoslaydi. N.R. Ahmedovaning “Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, новаторство” monografiyasida Muallif XX asr O‘zbekiston rassomlarining milliy an’analarni zamonaviy rangtasvir uslublari bilan qanday sintez qilganini ko‘rsatib beradi. Ushbu uchta kitobda ko‘rsatilgan tayyor yo‘llar va usullarga tayanib, keyingi bosqichda tasviriy san’at asarlaridagi liboslar yaxlit bir tizim sifatida o‘rganiladi. [2].

**NATIJALAR.**Tadqiqot doirasida O‘zbekiston tasviriy san’atida libosning tarixiy xotirani ifodalash vositasi sifatidagi badiiy talqini tahlil qilinganda, bir qator asarlar doirasida, Chingiz Ahmarov hamda Alisher Aliqulovlarning asarlari o'rganildi.



**1-rasm. Chingiz Ahmarovning “Shirin” asari**

Chingiz Ahmarov XX asr o‘rtalaridagi mafkuraviy va realistik cheklovlarga qaramay, libos orqali XV asr — Temuriylar renessansi davri estetikasi va saroy madaniyati xotirasini muvaffaqiyatli qayta tiklagan. Asardagi Shirin obrazi kiyimi shunchaki bezak emas, balki qadimgi devoriy rasmlar va Kamoliddin Behzod maktabiga xos miniatyura an’analarini dastgohli rangtasvirga ko‘chirgan vizual ko‘prik vazifasini o‘tashi ilmiy jihatdan asoslanadi.Portretdagi libosning kesilishi, yenglarning uzun va nozik shakli, matoning burmalari va bosh kiyimi tahlil qilinib, ularning har biri o‘zbek xalqining ko‘p asrlik tikuvchilik, to‘qimachilik hamda etiket madaniyatidan so‘zlovchi tarixiy kodlar majmui ekanligi aniqlandi.Kiyim va bosh kiyimidagi o‘simliksimon (islimiy) naqshlar shunchaki dekorativ element emas, balki xalq amaliy san’atining qadimiy an’analarini saqlovchi va o‘tmishni bugungi kun tomoshabiniga "o‘qib beruvchi" vizual matn ekanligi isbotlanadi. Rassom qo‘llagan an’anaviy tempera texnikasi esa libosning asriy jilosini saqlashga xizmat

qilgan.Urush yakunlangan davrda (1945-yil) yaratilgan ushbu yopiq, viqorli va nafis libos talqini orqali o‘zbek ayolining hayo, sadoqat va ichki go‘zallik borasidagi asriy milliy ideali himoya qilinganligi hamda tasviriy san’at vositasida kelajak avlodga sof tarixiy xotira sifatida yetkazilgan. Ch. Ahmarovning “Shirin” asarida libos o‘tmish bilan bugungi kunni bog‘lovchi estetik ko‘prik, tarixiy xotirani ifodalovchi va saqlovchi eng muhim badiiy-hujjatli vosita sifatida talqin etilgan.

**2-rasm Alisher Aliqulovning „Amir Temur jahon tarixida“ nomli asaridan “Elchilarni kutib olish marosimi” sahnasi**

Alisher Aliqulovning „Amir Temur jahon tarixida“ (2002) nomli mahobatli panno asari hamda undagi elchilar syujeti o‘zbekiston tasviriy san’atida libosning tarixiy xotirani ifodalash vositasi sifatidagi badiiy talqinini o‘rganishda eng mukammal va boy manbalardan biri hisoblanadi. Rangtasvirda kiyim-bosh shunchaki personajni bezovta qiluvchi element emas, balki muayyan davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasi, xalqning madaniy o‘zligi va milliy tafakkurini tiklovchi bosh mezon vazifasini o‘taydi. Rassom ushbu asar misolida tarixiy liboslar orqali

o‘tmish xotirasini monumental shaklda qayta jonlantirgan.Asardagi elchilar sahnasida libos tasviri eng avvalo diplomatik munosabatlar va geosiyosiy qudrat ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Kompozitsiya markazida turgan Sohibqiron Amir Temurning zardo‘zi to‘ni va harbiy-shohona kiyimlari o‘zbek xalqining davlatchilik an’analari, mahobat va ulug‘vorlik haqidagi tarixiy xotiralarini shakllantiradi. Uning atrofidagi vazirlar, ulamolar va sarkardalarning saroy etiketi (odob-axloqi) asosida kiyingan liboslari XIV-XV asrlar Samarqandining yuksak madaniy taraqqiyot darajasini ko‘rsatadi. Milliy liboslardagi naqshlar, matoning sifati va kiyilish uslubi o‘zbek xalqining asriy estetik didi hamda hunarmandchilik maktablari haqidagi vizual xotirani saqlab qolgan.Shu bilan birga, asarda libos "Sharq va G‘arb muloqoti" hamda millatlararo simvolizm vositasiga aylanadi. Alisher Aliqulov Kastiliya (Ispaniya), Fransiya, Xitoy, Hindiston va Vizantiyadan kelgan elchilar guruhlarini chizar ekan, ularning har birining milliy kiyim-boshlari, ritsarlik zirhlari, ipak va duxoba kamzullari hamda o‘ziga xos bosh kiyimlarini tarixiy manbalarga (xususan, Rui Gonsales de Klavixo kundaliklariga) tayanib, nihoyatda aniqlik bilan tiklagan. Ushbu rang-barang liboslar to‘qnashuvi o‘quvchiga o‘sha davrda Samarqand jahon siyosati va diplomatiyasining markazi bo‘lgani haqidagi tarixiy haqiqatni matnsiz, faqat vizual til orqali yetkazadi. Ushbu ikki asar milliy san’atimizda shunchaki go‘zal rasmlar emas, balki tariximizni so‘zsiz gapirib beruvchi vizual darslikdir.har ikkala rassom ham o‘zbek xalqining kiyinish, to‘qimachilik va muomala madaniyatini juda chuqur o‘rgangan. Ular yaratgan bu obrazlar kelajak avlodlar uchun o‘z milliy kimligini anglashda va tarixdan g‘ururlanishda hujjat bo‘lib xizmat qiladi. [3].

**MUHOKAMA**. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Chingiz Ahmarovning “Shirin” (1945) asari va Alisher Aliqulovning “Amir Temur jahon tarixida” (2002) mahobatli pannosi o‘zbek tasviriy san’atida tarixiy xotirani qayta tiklashning ikki xil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvni namoyon etadi. Kiyim tasviri — shunchaki dekorativ (bezak) element emas, balki vizual til va tarixiy koddir. Ch. Ahmarov sho‘ro davrining mafkuraviy va realistik qoliplaridan chetga chiqqan holda, XV asr miniatyura maktabi an’analarini dastgohli rangtasvirga

ko‘chira olgan. Rassom asarda islimiy naqshlar va libosning nozik kesimlaridan foydalanib, tomoshabinga o‘zbek xalqining ko‘p asrlik to‘qimachilik va etiket madaniyatini matnsiz, faqat vizual shaklda "o‘qib beradi". Bu esa libosning tarixiy xotira tashuvchi hujjatli vosita ekanligini tasdiqlaydi. Libos — ijtimoiy-siyosiy davr va milliy ideal ko‘zgusidir. Agar Ch. Ahmarov Ikkinchi jahon urushi yakunlangan murakkab davrda o‘zbek ayolining hayosi, sadoqati va ichki go‘zalligini yopiq hamda viqorli libos orqali shaxs timsolida himoya qilgan bo‘lsa, A. Aliqulov mustaqillik davri talablaridan kelib chiqib, bu g‘oyani davlat miqyosida monumental shaklga keltirdi.A. Aliqulov panno markazidagi Sohibqiron Amir Temurning zardo‘zi to‘ni va sarkardalarning saroy kiyimlari orqali yuksak davlatchilik an’analarini ko‘rsatadi. Kastiliya, Fransiya, Xitoy va Hindiston elchilarining kiyim-boshlari, ritsarlik zirhlarini Rui Gonsales de Klavixo kundaliklari asosida aniq tasvirlagani esa Samarqandning o‘sha davrda jahon diplomatiyasi markazi bo‘lganini isbotlovchi tarixiy haqiqatga aylanadi.Ushbu ikki asarni qiyosiy tahlil qilish jarayonida, har ikki ijodkor ham tarixiy liboslarni shunchaki tasavvurga tayanib emas, balki aniq tarixiy manbalar (miniatyuralar, devoriy suratlar, kundaliklar) asosida tiklagan. Libos tasviriy san’atda o‘tmish bilan bugungi kun tomoshabinini bog‘lovchi estetik ko‘prik vazifasini o‘tamoqda.[4].

**XULOSA**. O‘zbekiston tasviriy san’atida milliy libos tarixiy xotira, madaniy o‘zlik va xalqning estetik qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy mavzudagi asarlarda libosning shakli, matosi, naqshi va rang yechimi personajning xarakteri, ijtimoiy mavqei hamda muayyan davr muhitini ochib berishga xizmat qiladi.

Chingiz Ahmarov va Alisher Aliqulov asarlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy libos tasviriy kompozitsiyada shunchaki bezak elementi bo‘lib qolmay, balki tarixiy va madaniy mazmunni yetkazuvchi vizual vosita vazifasini bajaradi. Rassomlar libos elementlari orqali xalqning ko‘p asrlik an’analari, turmush tarzi, hunarmandchilik madaniyati va estetik qarashlarini badiiy shaklda aks ettirganlar.

Shu jihatdan, O‘zbekiston tasviriy san’atida libos o‘tmish bilan bugungi kun o‘rtasidagi tarixiy-madaniy bog‘liqlikni ifodalovchi hamda milliy xotirani saqlashga xizmat qiluvchi muhim badiiy unsur sifatida baholanishi mumkin.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-212-son qarori.

2.Пугаченкова Г. А. Костюм Средней Азии по данным миниатюр XV–XVI вв. // Костюм народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1979.

3.Фахретдинова Д. А. Декоративно-прикладное искусство Узбекистана. – Ташкент: Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1982.

4.Ахмедова Н. Р. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, новаторство. – Ташкент: Фан, 2002.

5.Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд к двору Тимура (1403–1406). / Перевод И. С. Мироковой. – Москва: Наука, 1990.Хакимов А. А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент: San’at, 2010.